



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 19.01.2022 г. № 51

между MChJ "NON-AZIZ" и Тошкент тумани МТБ на общую сумму 1902000,00

Глава  
Казначейский лицевой счёт

251  
400722860272657091100251039

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)		Всего
	4252300		
Январь	1 902 000,00		1 902 000,00
Февраль			
Март			
Апрель			
Май			
Июнь			
Июль			
Август			
Сентябрь			
Октябрь			
Ноябрь			
Декабрь			
<b>Всего за год</b>	<b>1 902 000,00</b>		<b>1 902 000,00</b>

Всего 1902000,00 сум

Один миллион девятьсот две тысячи сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 570600,00 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в Январ мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_ числа текущего месяца.  
(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)



Главный бухгалтер заказчика

Карабоева Лола Тулкиновна

Ф.И.О.

(подпись)

(подпись)

(подпись)

Зупаров А. Т.

Ф.И.О.

(подпись)

Принял работник казначейского  
подразделения

(подпись)

« \_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_ г.

Получил работник  
заказчика

(подпись)

« \_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_ г.

**№ 51 sonli  
MAXSULOT YETKAZIB BERISH  
SHARTNOMASI**

2022 yil 19-yanvar

Toshkent tumani.

Keyingi o'rnlarda "Tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi" deb ataladigan "**Non-Aziz**" mas'uliyati cheklangan jamiyatining raxbari S.S. Asatov orqali bir tomonidan, keyingi o'rnlarda "Sotib oluvchi" deb ataladigan **Toshkent tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi** rahbari **Lola Karabaeva** ikkinchi tomonidan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. Shartnomada tovar deb nomlanuvchi "Non-Aziz" mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan 2022 yilda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish va qabul qilish ikkala taraf o'rtasida tuzilayotgan shartnomaning predmeti hisoblanadi.

Shartnoma 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar tuzilgan hisoblanadi.

1.2. Tovarning yaroqlilik muddati 1 (bir kun) kun. Yaroqlilik muddati tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab o'ta boshlaydi.

1.3. Tovarni yetkazib berish xarajatlari umumiy summasi QQS bilan 1.902.000 (bir million to'qqiz yuz ikki ming) sum. Maktabgacha talim bo'limi tomonidan to'lanadi, shundan QQS 833282,61 sum mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan to'lanadi.

1.4. Tovar haqi shartnoma bo'yicha har bir yetkazilgan tovar va xarajatlar summasi miqdorida to'lanadi. Tovar yetkazib berilganligi schet-faktura bilan tasdiqlanadi.

1.5. Tovarlar shartnomaning ajralmagan qismi hisoblangan nomlarda va narxlarda 1-ilovaga muvoffiq yetkazib beriladi.

1.6. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ularning har biri bir xil kuchga ega.

**2. Tovarlarni yetkazib berish tartibi**

2.1. Shartnoma bo'yicha tovarlarni yetkazib berish tovarlarni sotib oluvchiga jo'natish yo'li bilan jo'natish raznaryadkasi orqali amalga oshiriladi.

2.2. Jo'natish raznaryadkasining jadvali shartnomaga ilova qilinadi.

2.3. Tovarlar faqat "Non-Aziz" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli avtomashinada yetkazilishi kerak. Tovarlar politilen yashikda olib kelinib, politilen yashiklar sotuvchiga qaytariladi.

2.4. Tovar yetkazib berishning ayrim davrida uni to'liq yetkazib bermagan tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi yetkazib berilmagan tovarlar miqdorini shartnoma amal qilish muddati doirasidagi keyingi davrda yoki davrlarda to'ldirishi lozim.

2.5. Sotib oluvchi yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan tovarlarni qabul qilishni rad etishga haqlisi.

2.6. Sotib oluvchi shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarning qabul qilinishini ta'minlaydigan barcha zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim.

2.7. Sotib oluvchi sotib olgan tovarlarni tovarlar yetkazib berilganidan keyin darhol ko'zdan kechirishi, agarda yetkazib berish bilan bog'liq kamchiliklar aniqlangan taqdirda, tovar yetkazib beruvchi-sotuvchini zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

### **3.Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatları**

#### **3.1. Sotuvchining huquqlari:**

- sotilgan tovar haqini 30 foizini shartnoma imzolangan kundan boshlab 15 bank ish kuni ichida, qolgan 70 foizini mahsulot yetkazib berilgandan keyin olishi;
- tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to‘liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o‘ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarda belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchisotuvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini to‘lashni talab qilishga haqli.

#### **3.2. Sotuvchining majburiyatları:**

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko‘rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko‘rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo‘lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o‘ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

#### **3.3. Sotib oluvchining huquqlari:**

- sotib olayotgan tovarni o‘ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko‘rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko‘rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo‘lgan tovarni topshirishni talab qilish.

#### **3.4. Sotib oluvchining majburiyatları:**

- sotilgan tovar haqini 30 foizini shartnoma imzolangan kundan boshlab 15 bank ish kuni ichida, qolgan 70 foizini mahsulot yetkazib berilgandan keyin to‘lab berish;
- sotib olgan tovar haqini o‘z vaqtida to‘lash;
- tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to‘liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o‘ralishi to‘g‘risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o‘n kun muddat ichida ma‘lum qilishi shart.

### **4.Shartnoma bo‘yicha javobgarlik**

4.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko‘ra sotish joyida darhol tovar to‘g‘risidagi axborotni olish imkonini berilmagan yoxud uning tovarni ko‘zdan kechirish, tovarning xossalari ni tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko‘rsatishni talab qilish huquqi ta‘minlanmagan bo‘lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o‘zi ko‘rgan zararni to‘lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo‘lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to‘langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to‘g‘risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so‘ng tovarda paydo bo‘lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o‘zida bunday axborot bo‘lmagani sababli paydo bo‘lganini isbotlasa, javobgar bo‘ladi.

4.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o‘ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o‘ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan

tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lмаган idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'miga ushbu shartnomaning 4.3-bandı birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lмаган tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnomaga tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldag'i, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lган tovarga almashtirishni;

xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldag'i, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lган tovarga almashtirishni;

tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'mini qoplagan holda shartnomaga bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtida sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

4.4. Sotuvchi shartnomaga bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

4.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.6. Tovarlarni to'liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun neustoyka penya shaklida undiriladi. Bunda penyaning miqdori har bir yetkazib berilmagan yoki yetkazib berish muddatlari buzilgan tovarlar umumiyligi summasining 0,5 (bir) % (foizi) miqdorida majburiyat amalda bajarilguniga qadar undiriladi. Ammo jami yetkazib berilmagan tovar summasining 50 (ellik) % (foizi) miqdoridan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

4.7. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama (to'liqm yoki qisman) bosh tortishga taraflardan biri shartnomani jiddiy buzgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Shartnomani buzish quyidagi hollarda jiddiy deb topiladi:

- tegishli darajada sifatli bo'lмаган, sotib oluvchi uchun maqbul muddatda bartaraf qilib bo'lmaydigan kamchiliklarga ega bo'lган tovarlarni yetkazib berish;

- tovarlarni yetkazib berish muddatlarini bir necha bor buzish.

4.8. Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasini bekor qilish yoki o'zgartirishning boshqa muddati bildirish xatida nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomaga bir taraf boshqa tarafdan shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bir taraflama bosh tortish to'g'risida bildirish xati olgan paytdan boshlab o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

## 5. Taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Taraflar shartnomaga majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalariiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

5.2. Ushbu shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtaida kelib chiqadiga nizo va ziddiyatlar taraflar o'rtaida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

5.3. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lмаган taqdirda, nizo talabnomalar bildirish tartibiga rioya qilingandan keyin Ҷangiota tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

### 6.Fors-major holatlar

6.1. Mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch ta'siri: tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, sotib oluvchi egaligida suv tegishi natijasida tovarning yomon holatga kelishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli Hukumat Komissiya tomonidan amalga kiritilgan favqulotda o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

### 7.Taraflarning rekvizitlari

Mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi:

Toshkent viloyati, Toshkent tumani  
Yunusobad QFY. Parvoz ko'chasi. 1 A  
X/r: 23208000204020433001  
«Davr bank»ning Yunusobod filiali  
MFO: 01122, OKED 10710  
STIR 203033172 Tel: 95 170-24-84

Sotib oluvchi:

Тошкент тумани Марказига таълим булими
Тошкент тумани Марказига таълим булими Гендер нукаси 1 ўй
P/c: 400732860272657091100251039
Инди мактабга таълим булими
Марказига таълим булими Гендер нукаси 1 ўй
MFO: 00014 Марказига таълим булими Гендер БЕХИСОН
P/c: 2340 2500 3612 0000 1010

F.I.Sh. S.Asatov



Imzo:

F.I.Sh. L.T.Karaboeva



Imzo:

2022 yil «*19*» yanvardagi  
51 - sonli shartnomaga ilova

Maxsulot yetkazib berish SPESIFIKATSIVaSI

No	Maxsulot nomi	O'ichov birligi	Soni	Narxi	Umumiy summasi 15% KKSSiz	15% KKS summasi	Umumiy summasi 15% KKS bilan
1.	Kolipli non 0,6 kg	dona	1268	1304,35	1653913,04	248086,04	1902000

"Maxsulot yetkazib beruvchi"



Тошкент туман Мактабгача таълим бўлими CO71213585

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyihaning nomi:** Mahsulot yetkazib berish haqida.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Shartnoma tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi “Non-Aziz” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan. Toshkent tumani Maktabgacha ta’lim bo‘limi mas’ul xodimi **TO‘XTAJONOV SUNNATJON ANVAR O‘G‘LI** tomonidan **CO71213585** raqam bilan shartnoma loyihasi qonun hujjatlariga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy xulosa olish uchun 19.01.2022 yil E-huquqshunos elektron tizimi orqali Toshkent tuman yuridik xizmat ko‘rsatish markazga yuborilgan.

**4.Taklif:** Shartnoma loyihasida shartnoma summasi QQS bilan 1 902 000 so‘m deb yozilgan. Ammo, kontragent - “Non-Aziz” MChJ tomonidan tasdiqlanib, Toshkent tumani Maktabgacha ta’lim bo‘limiga jo‘natilgan skaner qilingan shartnoma loyihasida boshqa summa yozilgan. Ushbu summani to‘gri hisoblanganligini Toshkent tumani Maktabgacha ta’lim bo‘limi bosh hisobchisi ko‘rib chiqishi lozim.

**5.Xulosa:**

Shartnoma loyihasi, O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29-avgustdaggi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi 670-I-son qonun talablariga rioya qilingan holda tuzilgan.

**Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti**



**Q.A.Shadiyev**

2021-yil 19-yanvar